GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABA YOSHLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA.

(Shodiyeva Shohsanam Furqatovna)

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining mustaqil izlanuvchisi

shoksanamshodieva97@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada globallashuv sharoitida talaba yoshlarda madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish masalasi pedagogik muammo sifatida tahlil etiladi. Zamonaviy jamiyatda madaniyatlararo muloqotning kengayishi, xalqaro integratsiyaning kuchayishi va ta'lim tizimining globallashuvi talabalarda yangi kompetensiyalarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotda madaniyatlararo kompetentlikning mazmuni, tuzilmasi hamda uning pedagogik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida talabalarda tolerantlik, empatiya, madaniy tafovutlarni anglash va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Maqolada ushbu muammoning dolzarbligi asoslanib, uni hal etishning ilmiy-pedagogik yondashuvlari va samarali usullari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, madaniyatlararo kompetentlik, pedagogik muammo, tolerantlik, madaniyatlararo muloqot, oliy ta'lim, talaba yoshlar.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается развитие межкультурной компетентности у студенческой молодежи в условиях глобализации как педагогическая проблема. В современном обществе расширение межкультурного общения, усиление международной интеграции и глобализация системы образования обусловливают необходимость формирования у студентов новых компетенций. В исследовании раскрываются сущность, структура и педагогические основы межкультурной компетентности с научно-теоретической точки зрения. Также анализируются педагогические условия, направленные на развитие толерантности, эмпатии, понимания культурных различий и навыков эффективного общения у студентов в системе высшего образования. Обосновывается актуальность данной проблемы и предлагаются эффективные научно-педагогические подходы и методы ее решения.

Ключевые слова: глобализация, межкультурная компетентность, педагогическая проблема, толерантность, межкультурное общение, высшее образование, студенты.

ANNOTATION

This article examines the development of intercultural competence among university students in the context of globalization as a pedagogical problem. In modern society, the expansion of intercultural communication, the strengthening of international integration, and the globalization of education systems require the formation of new competencies in students. The study analyzes the essence, structure, and pedagogical foundations of intercultural competence from a scientific-theoretical perspective. It also highlights the pedagogical conditions aimed at developing tolerance, empathy, understanding of cultural diversity, and effective communication skills among students in higher education. The relevance of the problem is substantiated, and effective scientific-pedagogical approaches and methods for its solution are proposed.

Keywords: globalization, intercultural competence, pedagogical problem, tolerance, intercultural communication, higher education, students.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida yangi ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashuvchan, turli faoliyat shakllariga qiziqadigan, erkin fikrlovchi, shaxsiy nuqtayi nazarga ega, ijodkor va raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Bu esa ta’limning quyi bosqichlaridan boshlab yuqori bosqichlarida ta’lim oluvchilarning individual bilim, ko‘nikma va malakalarinigina emas, balki madaniyatlararo kompetentliklarni shakllantirish vazifasini ham kun tartibiga qo‘ymoqda.

Shu bois “o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish hamda ularda madaniyatlararo kompetentlikni takomillashtirish” maqsadi talabalarda globallashuv davrida madaniyatlararo kompetensiyalarini shakllantirishni takomillashtirish, izlanish, o‘z ustida ishlash va maqsadli faoliyatga yo‘naltiradigan yondashuvlarni ta’lim amaliyotiga intensiv qo‘llash masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Mavzu doirasidagi muammoning mohiyatini ochishga kirishishdan avval “Globallashuv” va “Madaniyatlararo kompetentlik” so‘zlarining ma’nosiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Globallashuv (globalizatsiya) - lotincha – “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. “Global” tushunchasi lug‘aviy ma’nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida – “umumiy” , lotin tilida esa – globus-“Yer shari” ma’nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma’noda ham bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan katta muammolarni, “sayyoraviy”, “dunyoviy” muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini o‘ziga qamrab oladi.

Globallashuv atamasi birinchi bor 1960 yil **Giddins** tomonidan foydalanilgan[1]. Bu atama XX asrning 90-yillargacha deyarli foydalanilmagan. 1985 yilga kelib amerikalik sotsiolog **R. Robertson** “globallashuv” atamasiga tushuncha bergan [2]. Globalizatsiya atamasi birinchi bo‘lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981 yildan qo‘llanilib kelingan. Ammo bu so‘zning to‘liq ma’nosi, konsepsiyasi 1990 yilning yarmida amerikalik olim **Charlz Taz Rassel** tomonidan to‘liq ochib berilgan. Globallashuv barcha sohalarga ta’sir etayotgani kabi madaniy soha hamda ijtimoiy sohaga ham ta’sir etmoqda, natijada turli millat va madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqot, hamkorlik va o‘zaro tushunish jarayonlari yanada jadallashmoqda. Bunday sharoitda talaba yoshlarda madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib, ularning turli madaniy qadriyatlarni hurmat qilishi, tolerantlik, muloqot madaniyati va global fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu orqali yoshlar nafaqat milliy o‘zligini saqlab qolgan holda, balki zamonaviy global jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan yetuk mutaxassislar sifatida kamol topadilar. Hozirgi globallashuv davrni inobatga olib, oliy ta’lim oldida talabaning kompetensiyalarini o'zgartirish va ularni zamonaviy voqelikka moslashtirishga va globallashuv va mintaqaviylashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotni qurish strategiyasini tanlashdek qiyin vazifa turibdi va bunda pedagogika fani – asosiy g'oyalarni aniqlash, usullari, tez o'zgaruvchan voqelik sharoitida talabaning madaniyatlararo kompetentsiyasini (MK) shakllantirishda muhim hisoblanadi. Bugungi ta’lim muhitida globallashuv qadriyatlar, hayotiy munosabatlar va g'oyalarning yaqinlashishi uchun istisno holatlarni yaratmoqda va buning natijasida bir tomondan keng ko'lamli axborot maydoni milliylikni o'zgartira boshladi ikkinchi tomondan esa boyita boshladi. Hozirgi vaqtda ta'lim maydoni ko'p madaniyatli, ijtimoiy yo'naltirilgan, inson va umuman mamlakat rivojiga qaratilgan, xalqaro ta'lim muhitini shakllantirish uchun ochiqroq, milliy xususiyatga ega, bilim va insonni dunyoga tanishtirish qadriyatlari ham bo’lib hisoblanadi shuning bilan birgalikda muhim tushunish va ma'lum bir jamiyat madaniyatida mavjud bo'lib, uning qadriyatlari, munosabati va axborotni o'zlashtirish usulini aks ettiradi. Bundan tashqari, zamonaviy ta'limning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishining yana bir sharti muvozanatli voqelikning ko'p qirraliligini tushunishga qaratilgan ta'limni insonparvarlashtirish bilan bog'liq. Globallashuv va mintaqaviylashuv jarayonlari sharoitida oliy ta’lim oldida murakkab vazifa turibdi-talabalarning kompetensiyalarining zamonaviy voqelikka mos ravishda yangilash hamda madaniyatlararo muloqotni tashkil etish strategiyasini to’g’ri tanlash. Shu nuqtayi nazardan

pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri tez rivojlanayotgan dunyo sharoitida talabalarda madaniyatlaro kompetentlikni shakllantirishning g'oyalari, metodlari va texnologiyalarini aniqlashdan iborat. Globallashuv qadriyatlar, turmush tarzi va g'oyalarining o'zaro yaqinlashuvi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Boyib borayotgan global axborot makoni milliy madaniyatlarni boyitadi va o'zgartiradi, turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirini kuchaytiradi. Boshqa tomondan esa, milliy madaniyatlarning bir xillashuvi, o'ziga xoslikning yo'qolishi xavfi ham mavjud.

Ta'limning ko'p madaniyatli makon sifatidagi roli: Hozirgi kunda ta'lim tizimi ko'p madaniyatli maydonga aylanib bormoqda. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha , zamonaviy ta'lim:

-ijtimoiy yo'naltirilgan;

-inson va sivilizatsiya rivojiga xizmat qiluvchi;

-xalqaro ta'lim muhitini shakllantirishga ochiq;

-milliy qadriyatlarni saqlagan holda insonni global qadriyatlar bilan tanishtiruvchi tizim bo'lishi kerak.

Ta'lim muayyan jamiyat madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, u jamiyatning qadriyatlari, dunyoqarash va bilimlarni o'zlashtirish usullarini aks ettiradi.

Zamonaviy ta'limning samarali faoliyat yuritishi esa quyidagi omillar bilan bog'liq.

-ta'limni insonparvarlashtirish;

-ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik voqelikning o'zaro bog'liqligini anglash;

-dialog madaniyati;

-hamkorlikka asoslangan o'qitish;

Zamonaviy insonning madaniy o'ziga xosligi muammosi. XIX-asrda madaniyatlararo o'zaro ta'sir nihoyatda kuchaygan. Shu sababli inson oldida quyidagi savollar tobora murakkablashmoqda.

-"Men kimman?"

- "Mening madaniy o'ziga xosligim nimadan iborat?"

- "Milliylik va globallik o'rtasidagi muvozanat qanday saqlanadi?"

Bu savollarga javob topishda madaniyatlararo kompetentlik muhim omil hisoblanadi.

"Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining farqi. Madaniyatlararo shaxsni shakllantirishni tushunish uchun "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini aniq ajratish zarur. Ilmiy adabiyotlarda bu atamalar ko'pincha sinonim sifatida qo'llanadi, ammo ko'plab tadqiqotlar ularning mazmuni turlicha ekanini ko'rsatadi.

Kompetensiya-ma'lum bir ta'lim sohasida shaxs egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, va malakalarga qo'yiladigan talablar majmu (normativ model).

Kompetentlik-o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatda samarali qo'llash qobiliyati. Tadqiqotchi olimlarning fikriga ko'ra:

Kompetensiya-ijtimoiy talab yoki norma.

Kompetentlik-shaxsda shakllangan sifatlar majmui. Shu bois tadqiqotda "kompetensiya"-nazariy modelni tavsiflashda. "kompetentlik"-modelni amaliyotda qo'llashda ishlatiladi. Bakalavriat bosqichida madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirish ushbu tadqiqotning asosiy e'tibor tizimiga qaratiladi. Chunki aynan oliy ta'limning boshlang'ich bosqichida talabalar turli madaniyat vakillari bilan faol muloqotga kirishadi. Madaniyatlararo samarali muloqot uchun zarur shaxsiy fazilatlarni shakllantirishni o'qitishning dastlabki bosqichlaridan boshlash muhimdir. Bu: madaniyatlararo ziddiyatlarni kamaytiradi, streotiplarni oldini oladi, ijobiy kommunikatsiya ta'minlaydi.

Madaniyatlararo kompetentlikni tarkibiy qismlari. Madaniyatlararo kompetentlik murakkab tuzilishga ega bo'lib, u samarali madaniyatlararo o'zaro ta'sirga qodir shaxsni shakllantiradi. U bilan bog'liq ko'plab tushunchalar mavjud: ko'p madaniyatli kompetensiya, etnomadaniy kompetensiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, chet tilidagi kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo sezgirlik. Bu tushunchalar turlicha ta'riflansa-da , bir-biriga zid emas.

Madaniyatlararo sezgirlikning o'rni. Madaniyatlararo sezgirlik ko'pincha madaniyatlararo kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-madaniy farqlarni anglash;

-boshqa madaniyat vakillarining qadriyatlarini tushunish;
-streotiplardan xoli baholash;
-empatiya;

Ba'zi olimlar uni madaniyatlararo kompetentlikning asosi yoki eng muhim elementi deb hisoblaydi. Madaniyatlararo va kommunikativ kompetensiya o'rtasidagi bog'liqlik. Ko'plab tadqiqotchilar madaniyatlararo kompetentlikni kommunikativ bilan bog'laydi.

Madaniyatlararo va kommunikativ kompetensiya o'rtasidagi bog'liqlik. Ko'plab tadqiqotchilar madaniyatlararo kompetentlikni kommunikativ kompetensiya bilan bog'laydi. Madaniyatlararo kompetensiya quyidagicha ta'riflanadi:

-boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qila olish qobiliyati;
-madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning qisqa shakli.

Madaniyatlararo va chet tilidagi kommunikativ kompetensiyalar o'rtasida yaqinlik mavjud bo'lsa-da, ular aynan bir xil tushunchalar emas.

Ayrim olimlar esa madaniyatlararo kompetentlikni shaxsning umumiy kommunikativ kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'radilar.

Boshqa xorijiy tillarda kommunikativ kompetensiya haqida so'z yuritilganda, tadqiqotchilar tili turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqada asosiy vosita ekanini ta'kidlaydilar. Biroq madaniyatlararo kompetensiya bilan aynan tenglashtirilmaydi, garchi uning ayrim tarkibiy qismlari madaniyatlararo kompetensiya bilan bog'liq bo'lsa ham.

Madaniyatlararo yondashuv doirasida ta'lim faqat xorijiy tilni o'zlashtirishga emas, balki gumanitar va tabiiy fanlar mazmuniga boshqa madaniyatlarni tilga bog'liq bo'lmagan holda o'rganish usullarini ham kiritishga e'tibor qaratadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, atamalardan foydalanish bilim sohasi va ularga beriladigan urg'uga qarab farqlanadi. Masalan, "madaniyatlararo kompetensiya" atamasi marketing va biznes sohalarida ham qo'llanadi va u yerda asosiy e'tibor madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash hamda inson xatti-harakatlarini uning madaniy kelib chiqishiga qarab tahlil qilishga qaratiladi. Bunda madaniyatlar taqqoslanadi, ularning umumiy va farqli jihatlari ajratib ko'rsatiladi. Pedagogikada ko'p madaniyatli kompetensiya tushunchasiga berilgan ta'riflarda boshqa madaniyatlarni hisobga olish, madaniy xilma-xillikka moslashish, turli hayot tarzlari, xatti-harakat modellari va qarashlar bilan tanishish hamda ularni amalda qo'llash qobiliyatiga urg'u beriladi. Ko'p madaniyatli ta'lim ko'p millatli jamiyatda boshqa madaniyatlarga hurmat bilan qarash va turli irq, millat hamda diniy e'tiqod vakillari bilan hamjihat yashashga asoslangan muloqotni rivojlantirishga qaratilgan. Bunda boshqa madaniyatlarga integratsiyalashuvning muhim sharti sifatida mamlakat ichidagi etnik-madaniy guruhlar o'rtasida uyg'un munosabatlar o'rnatish birinchi o'ringa chiqadi. "Madaniyatlararo kompetensiya" atamasi "etnik-madaniy kompetensiya" tushunchasi bilan bir qatorda qo'llanadi.

Etnik-madaniy kompetensiya — bu bir mamlakat hududida yashovchi turli etnik guruhlar bilan ijobiy munosabatlarni o'rnatish va saqlab qolish qobiliyatidir.

Madaniyatlararo kompetensiya esa turli madaniy hamjamiyatlar vakillari bilan muloqot qilishga yo'naltirilgan bo'lib, u nafaqat turli mamlakat fuqarolari, balki bir hududda yashovchi turli etnik guruhlar o'rtasidagi muloqotdagi qiyinchiliklarga ham e'tibor qaratadi. Ba'zi tadqiqotchilar ijtimoiy-madaniy kompetensiyani madaniyatlararo kompetensiya bilan tenglashtiradilar (E.V. Volkova) [3], boshqalar esa uni chet tilini o'qitishda kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalar o'rtasidagi bog'lovchi omil sifatida ko'radilar (T.V. Boldireva)[4]. V.V. Safonova esa ijtimoiy-madaniy kompetensiyani ko'p funksiyali kompetensiya sifatida ta'riflaydi. U shaxsga turli madaniyatlarga xos muloqot me'yorlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish, madaniy hodisalarni to'g'ri talqin qilish hamda madaniyatlararo o'zaro ta'sir strategiyasini tanlash imkonini beradi [5].

Biroq madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish madaniyatlararo muloqot sohasidagi nazariy bilimlarni ham talab qiladi. Shu bois ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish madaniyatlararo o'zaro ta'sirga tayyorgarlikning muhim bosqichi hisoblanadi.

Shu bilan birga, madaniyatlararo vaziyatlar doirasining torayishi kuzatilishi mumkin. Natijada talaba madaniyatlararo muloqot muammolarini kamroq muvaffaqiyat bilan hal qilishi va

madaniyatlararo yondashuv tamoyillariga asoslangan ta’lim natijalariga erishishda sustroq ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi mumkin.

“Madaniyatlararo kompetensiya” atamasi ko‘pincha “madaniyatlararo kompetensiyalar” tushunchasiga sinonim sifatida qo‘llanadi. Bu termin chet tilidan so‘zma-so‘z tarjima qilingan bo‘lib, undagi **inter-** prefiksi “orasida”, “o‘rtasida” degan ma’noni anglatadi. Madaniyatlararo kompetensiyani tarixiy nuqtai nazardan o‘rganar ekanmiz, XX asr oxiri — XXI asr boshlaridagi tadqiqotchilar orasida G. Urban[6] , V. Gudikunst [7] va I. Janet [8], shuningdek G. Kogdell [9] va K. Sitarama [10]ning ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular boshqa madaniyat vakillariga nisbatan bag‘rikeng munosabatni shakllantirish maqsadida madaniyatlararo muloqot kodeksini ishlab chiqqanlar. XX asrning ikkinchi yarmida Rossiyada ham madaniyatlararo muloqot bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotlar chet tillarini o‘qitish paradigmasining o‘zgarishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Natijada o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida chet tilining madaniy xususiyatlarini o‘rganish zarurligi tan olindi. Ushbu yo‘nalishda E.M. Vereshchagin [11], V.G. Kostomarov [12], E.I. Passov [13], S.G. Ter-Minasova [14] va I.V. Xaleva [15]ning ishlari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ko‘plab tadqiqotchilar madaniyatlararo muloqot bo‘yicha amaliy tadqiqotlar olib borib, turli tavsiyalar ishlab chiqmoqdalar (S. Gerts [16], V. Gudikunst [17], V. Gudenaf [18], K. Rot [19]). Ular bir tomondan madaniy standartlar va xulq-atvor namunalari o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilsa, boshqa tomondan barcha madaniyatlarni birlashtiruvchi umumiy xususiyatlar mavjudligini ham ta’kidlaydilar.

Madaniyatlararo muloqot — bu turli madaniyat va tillarga mansub shaxslar o‘rtasidagi o‘ziga xos o‘zaro munosabatlar jarayonidir. Bunda muloqot ishtirokchilari bir-birini “boshqa”, “begona” sifatida qabul qiladi va shu “boshqalik”ni anglash orqali muloqot jarayoni shakllanadi.

Madaniyatlararo muloqotning asosiy vazifasi — madaniyatlararo ziddiyatlarni og‘zaki va noverbal darajada hal qilish, madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish hamda madaniyatlararo shaxsni shakllantirishdir. Ushbu yo‘nalish metodologiyasi madaniy to‘qnashuvlarning sabablarini aniqlash va murosali yechim topishga yordam beradi.

Ko‘plab tadqiqotchilar kompetensiyalarni ikki guruhga ajratadilar:

umumiy (universal, asosiy, kasbiy),

maxsus (aniq faoliyatga yo‘naltirilgan, ixtisoslashgan).

Mahalliy va xorijiy olimlar madaniyatlararo kompetensiyani asosiy kompetensiyalar qatoriga kiritadilar, chunki u turli soha mutaxassislari uchun zarur hisoblanadi. Bu kompetensiya turli madaniyat vakillari bilan kundalik va kasbiy faoliyatda samarali muloqot qilish imkonini beradigan qadriyatlar, bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Asosiy kompetensiyalar — bu insonning zamonaviy jamiyatning tez o‘zgaruvchan sharoitida shaxsiy va kasbiy hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradigan universal qobiliyat va ko‘nikmalardir. Ularga maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan umumiy aqliy usullar, strategiyalar va faoliyat vositalari kiradi. Bunday kompetensiyalar kasbiy chegaralardan tashqariga chiqib, inson hayotining poydevorini tashkil etadi.

Yuqoridagilar oliy ta’lim tizimida madaniyatlararo kompetensiyani pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu kompetensiya madaniyatlararo muloqot jarayonida shakllanadi, chunki bunday muloqot bir madaniyat vakillari o‘rtasidagi odatiy muloqotdan farqli qonuniyatlarga asoslanadi. Madaniyatlararo muloqotda ishtirokchilar ko‘pincha o‘zlariga tanish bo‘lmagan madaniy fon bilan to‘qnash keladilar.

Madaniyatlararo kompetensiya — bu bilim va ko‘nikmalarga asoslangan, o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan kompetensiya bo‘lib, muloqot ishtirokchilariga sodir bo‘layotgan jarayonlarning umumiy ma’nosini birgalikda anglash va natijada har ikki tomon uchun ijobiy bo‘lgan muloqotga erishish imkonini beradi. Madaniyatlararo kompetensiya madaniyatlararo muloqotni samarali amalga oshirish qobiliyatini ifodalaydi.

Madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirishdan asosiy maqsad — shunday shaxsni tarbiyalashki, u o‘z madaniy muhitidan tashqariga chiqib, turli madaniyatlar o‘rtasida vositachi bo‘la olsin va shu bilan birga o‘z milliy-madaniy o‘ziga xosligini yo‘qotmasin. Madaniyatlararo muloqotga

oid ko‘plab tadqiqotlarda “madaniyatlararo kompetensiya” tushunchasi markaziy o‘rin egallaydi. Quyidagi olimlar uning shakllanishi muhimligini alohida ta’kidlaydilar: I.A. Zimnyaya [20], A.P. Sadoxin [21], Yu.A. Ogrizko[22], G. Kopteltseva[23], T.G. Stefanenko[24], N.V. Yankina[25], L.A. Gorodetskaya[26], E.V. Tezbol[27], T.V. Poshtareva[28], G.S. Trofimova[29], A.N. Utekhina[30], I.Yu. Xotinets[31], E.R. Hakimov[32], A. Blejinskaya[33] va boshqalar.

Yaqin yillarda xorijiy tadqiqotchilar — A.V. Annenkova [34], V.G. Apalkov [35], K.E. Bezukladnikov [36], P.P. Bikiteeva[37], G.V. Elizarova [38], shuningdek M. Bennet [39], G. Chen [40], D.K. Deardorff [40], K. Knapp [41], J. Knapp [42], M. Knight [43], C. Kramsch [44], A. Moosmuller [45] va boshqalar — shaxsning madaniyatlararo kompetensiyasining turli jihatlarini nazariy jihatdan o‘rganib, yoritib berdilar.

Madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish masalasi L.V. Korneeva [46], E.I. Passov [47], V.V. Safonova [48], A.N. Utekhina [49], shuningdek B. Coltrane [50], C.K. Kikoski [51], E. Peterson [52] va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Ona tili va chet tili madaniyati doirasida shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari esa N.D. Galskova [53], N.I. Gez [54], G.S. Denisova [55], G. Fischer [56] va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Turli manbalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, madaniyatlararo kompetensiya tushunchasining talqinlari xilma-xildir. Masalan, R.R. Bikiteeva madaniyatlararo kompetensiyani faqat bilim va ko‘nikmalar bilan cheklamay, balki motivatsiya va qadriyatlar tizimini ham o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi hamda uning shaxs rivojiga xizmat qiluvchi funksiyasini alohida ko‘rsatib o‘tadi [57].

A.P. Sadoxinning fikricha, madaniyatlararo kompetensiya — bu bilim, ko‘nikma va malakalar majmui bo‘lib, ular yordamida shaxs boshqa madaniyat vakillari bilan ham kundalik, ham kasbiy darajada muvaffaqiyatli muloqot o‘rnata oladi [58].

Kengroq ma’noda esa u “madaniyatlararo muloqot subyektlarining o‘ziga xos moslashuvchan xususiyati bo‘lib, ularga samarali o‘zaro hamkorlik qilish imkonini beradi” deb talqin etiladi.

T.V. Poshtareva “etnomadaniy kompetensiya”ni shaxsning shunday xususiyati sifatida izohlaydiki, u faqat bilim, ko‘nikma va malakalarning mavjudligi bilangina cheklanmaydi……faqat bilim, ko‘nikma va malakalarda emas, balki samarali millatlararo o‘zaro tushunish va hamkorlikka yo‘naltirilgan xulq-atvor modellari hamda obyektiv tasavvurlarda ham namoyon bo‘ladi [59].

“Madaniyatlararo kompetensiya” tushunchasiga boshqa nuqtai nazar T.G. Stefanenko tadqiqotlarida keltiriladi. U bu tushunchada “qobiliyat” (ko‘nikma) omiliga urg‘u beradi va unga “ijobiy munosabat”ni ham kiritadi [60].

Madaniyatlararo kompetensiya — bu jamiyatda mavjud turli etnomadaniy guruhlarga nisbatan faqat ijobiy munosabatgina emas, balki ularning vakillarini tushunish va boshqa madaniyat vakillari bilan ham maishiy, ham kasbiy sohalarda samarali hamkorlik qila olish qobiliyatidir.

N.V. Yankina madaniyatlararo kompetensiyani maxsus bilimlar, ko‘nikmalar va qadriyat yo‘nalishlarining murakkab majmui sifatida ko‘rib, uni integral shaxsiy sifat bilan tenglashtiradi [61].

Uning ta’rifiga ko‘ra, madaniyatlararo kompetensiya — bu tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy va psixologik bilimlar sintezi, shuningdek og‘zaki, noverbal va paraverbal muloqot ko‘nikmalari, chet tilidagi madaniyat me’yorlari va qadriyatlariga mos xulq-atvor, taqlid qilish, identifikatsiya, stereotiplash va umumlashtirish mexanizmlaridan foydalanish qobiliyati hamda chet tili madaniyatiga nisbatan qadriyatli munosabatni o‘z ichiga oluvchi integral shaxsiy sifatdir.

V.Yu. Xotinets asarlarida “ko‘p madaniyatli kompetensiya” shaxsning boshqa madaniyat vakillarini tushunish va ular bilan hamkorlik qilish zarurligini anglash orqali namoyon bo‘ladigan sifati sifatida talqin qilinadi. Bu kompetensiya madaniyatlararo o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadi [62]. Shuningdek, ko‘p madaniyatli kompetensiyaning refleksiv-kognitiv, qiymat-semantik va motivatsion-faol komponentlari N.V. Yankina tomonidan tavsiflangan madaniyatlararo kompetensiya tuzilishiga yaqin hisoblanadi [63].

E.V. Tez madaniyatlararo kompetensiya tarkibida qadriyat yo‘nalishlariga markaziy o‘rin beradi. U “madaniyatlararo kompetensiya tajribasi” tushunchasini kiritib, uni millatlararo muloqot madaniyatiga yo‘naltirilgan qadriyatlar, madaniy ehtiyojlar hamda o‘rganilayotgan til mamlakatining

milliy madaniyati sohasida muloqot qilish qobiliyatini ta’minlovchi shaxsiy-semantik shakllanishlar majmui sifatida izohlaydi [64].

V.V.Narolina esa madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani mutaxassisning yagona ijtimoiy-professional kompetensiyasining ajralmas qismi deb hisoblaydi. U bu kompetensiyani shaxsning samarali madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish qobiliyati hamda madaniy va til xilma-xilligini qabul qilishga tayyorligi sifatida talqin qiladi. Muallifning fikricha, xalqaro muloqot odob-axloqi, universal xulq-atvor qoidalari va me’yorlarini bilish hamda ularga rioya qilish orqali, hatto chet tilini o‘rtacha darajada bilgan holda ham, turli madaniyat vakillari bilan o‘zaro tushunishga erishish mumkin[65].

Bir qator tadqiqotchilar ham madaniyatlararo kompetensiyani alohida qobiliyat va tayyorlik sifatida baholaydilar. Masalan, E.R. Hakimov uni zamonaviy jamiyatdagi barcha madaniyat vakillari bilan muzokara olib borish, o‘zaro boyituvchi qarorlarga kelish qobiliyati va tayyorligi deb ta’riflaydi [66].

I.A. Mironova mutaxassisning madaniyatlararo kompetensiyasini kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida turli madaniyatlarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ularni og‘zaki va noverbal xatti-harakatlarda namoyon eta bilish, turli mamlakatlar vakillarining ishbilarmonlik madaniyatini tushunish, boshqa kasbiy qadriyatlarga bag‘rikenglik bilan qarash hamda murosaga kelish qobiliyati sifatida izohlaydi [67].

Yu. Rot va G. Kopteltsev madaniyatlararo kompetensiyani boshqa madaniyat vakillari bilan samarali va adekvat muloqot qilishning barqaror qobiliyati deb belgilaydilar [68].

O.V. Xuxlaeva, G.S. Denisova, M.R. Radovel va M.M. Volmer o‘z tadqiqotlarida “ko‘p madaniyatli ijtimoiy kompetensiya”ni turli madaniyat vakillarini tushunish va ular bilan samarali muloqot qilish qobiliyati sifatida tavsiflaydilar [69].

A.A.Jalolova ko‘p madaniyatli kompetensiyani kasbiy-pedagogik kompetensiyalar tizimida asosiy o‘rin tutuvchi murakkab psixologik tuzilma deb hisoblaydi [70]. Uning tarkibi uch asosiy komponentdan iborat:

1. Madaniy-kognitiv komponent:

— o‘z va boshqa madaniyatlarni bilish;
— ko‘p madaniyatli muloqot asoslarini tushunish;
— madaniyatlararo nizolarni oldini olish va hal qilish usullarini bilish;
— ko‘p madaniyatli sinfda ishlashga metodik tayyorgarlik.

2. Qiymat-shaxsiy komponent:

— gumanistik qadriyatlar tizimi;
— ijobiy etnik o‘zini identifikatsiya qilish;
— bag‘rikenglik.

3. Motivatsion-faol komponent:

— madaniyatlararo o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarini shakllantirish;
— ko‘p madaniyatli jamoada pedagogik faoliyat yuritish usullarini egallash;
— pedagogik hamkorlikning gumanistik yo‘nalgan uslubi.

Talabalarning ko‘p madaniyatli kompetensiyasini o‘rganar ekan, A.B. Zokirova uni integrativ shaxsiy sifat sifatida baholaydi. Bu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

— motivatsion-qadriyatli komponent
— etnik va madaniy xilma-xillikka ijobiy munosabat;
— mazmuniy-kognitiv komponent
— dunyo madaniyatlari va ularning xususiyatlari haqidagi bilimlar;
— operatsion-faol komponent
— turli xalqlar va madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalari.

Mazkur kompetensiya talabalarga bir sinf, bir maktab hamda maktabdan tashqari ijtimoiy muhitda turli madaniyat vakillari bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish imkonini beradi. Tadqiq qilinayotgan muammo doirasida ko‘pchilik olimlar “madaniyatlararo kompetentlik” tushunchasiga to‘xtalib, uni “murakkab tuzilma, kombinatsiya yoki psixologik konstrukt” sifatida tavsiflaydilar (A.A. Jalolova [71],

A.Yu. Muratov[72], M.V. Plexanova [73]), “integral va integrativ-shaxsiy sifat” yoki “integrativ-shaxsiy ta’lim” sifatida talqin qiladilar (L.Yu. Danilova [74], N.V. Yankina [75], A.B. Zakirova [76], T.A. Kolosovskaya[77], R.R. Bikiteeva [78]), shuningdek “qobiliyat va tayyorlik” sifatida ham izohlaydilar (I.A. Mironova [79], V.V. Narolina [80], G.E. Potorochnina [81], E.R. Hakimov [82]).

Ba’zi mualliflar madaniyatlararo kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlab, ular qatoriga “bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar”ni kiritadilar (G.E. Potorochnina [83], A.P. Sadoxin [84], A.Yu. Muratov [85], A.B. Zakirova [86], T.V. Poshtareva [87]). Boshqa tadqiqotchilar esa bu tarkibiy qismlarni kengaytirib, ularga qadriyat yo‘nalishlari, shaxsiy sifatlar, qobiliyatlar va motivlarni ham qo‘shadilar (T.A. Kolosovskaya [88], E.B. Bystraiya [89], R.R. Bikiteeva [90], M.V. Plexanova [91], L.Yu. Danilova [91], N.V. Yankina [92]).

O‘tkazilgan tahlil natijalariga asoslanib, biz “madaniyatlararo kompetensiya” tushunchasini shunday talqin qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymizki, u turli madaniyat vakillari bilan o‘zaro harakat jarayonida shaxsning sifatli faoliyat natijalarini eng to‘liq ifodalab bersin. Bu yerda shuni ta’kidlash muhimki, madaniyatlararo kompetensiyaning shakllanishi faol va ba’zan murakkab (stressli) faoliyat jarayonini o‘z ichiga oladi. Bunday faoliyat turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi real muloqot vaziyatlariga tayyor bo‘lishni hamda bilim, ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarning yuqori darajada namoyon bo‘lishini talab qiladi. Shu munosabat bilan “madaniyatlararo kompetensiya” tushunchasi “kross-madaniy” yoki “ko‘p madaniyatli” tushunchalardan farqli ravishda, aynan shaxslar o‘rtasidagi madaniyatlararo o‘zaro ta’sir jarayoniga bevosita bog‘liqdir. Bundan tashqari, biz madaniyatlararo kompetensiyani hayot davomida rivojlanib boradigan dinamik jarayon sifatida ko‘ramiz. Bunda madaniyat statik hodisa emas, balki me’yorlar, qadriyatlar va turmush tarzi o‘rtasidagi doimiy dialog sifatida tushuniladi.

Biz madaniyatlararo kompetensiyani D. Deardorff tomonidan taklif etilgan talqin asosida tushunishga tayandik. U madaniyatlararo kompetensiya sohasidagi ko‘plab ta’riflarni umumlashtirib, yetakchi mutaxassislar fikrlarini hisobga olgan holda, keng qabul qilingan yagona ta’rifni ishlab chiqishga muvaffaq bo‘lgan. Quyida tadqiqot ishtirokchilarining aksariyati tomonidan ma’qullangan madaniyatlararo kompetensiya ta’riflari keltiriladi:

1.Madaniyatlararo vaziyatlarda samarali va adekvat muloqot qila olish qobiliyati, bunda shaxs madaniyatlararo bilim, ko‘nikma va munosabatlarga tayanadi.

2.Madaniy kontekstga qarab o‘z nuqtai nazari va xatti-harakatlarini o‘zgartira olish qobiliyati; moslashuvchanlik, fikrlash doirasining kengligi va turli qarashlarga ochiqlik.

Madaniyatlararo kompetensiya — bu madaniyatlararo vaziyatlarda samarali va mos (adekvat) muloqot qilish qobiliyati bo‘lib, u madaniyatlararo bilimlar, ko‘nikmalar hamda munosabatlarga tayanadi. Madaniy kontekstga qarab o‘z nuqtai nazari va xatti-harakatlarini o‘zgartira olish qobiliyati; moslashuvchanlik, fikrlash doirasining kengligi hamda qarashlarning egiluvchanligi.

D.Deardorff tomonidan madaniyatlararo kompetensiyaning komponentlari quyidagi guruhlarga tizimlashtirilgan: munosabatlar; bilim va ko‘nikmalar; ichki va tashqi natija. Ular ko‘p jihatdan mahalliy mualliflar tadqiqotlarida ajratib ko‘rsatilgan madaniyatlararo kompetensiya komponentlari bilan mos keladi.